



EFFECTIVE METHODS OF TARGETED WORK WITH INDIVIDUALS PRONE TO RADICAL VIEWS: A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Iroda Shokhitbekovna Akhmedova

Head of Department at the Committee on Religious Affairs of the Republic of Uzbekistan

Researcher at Andijan State Pedagogical Institute

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

E-mail: axmedovaaa0577@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: radicalization, targeted prevention, social philosophy, individual approach, motivational interviewing, family, religious counseling, social inclusion, digital environment, deradicalization.

Received: 08.08.26

Accepted: 09.08.26

Published: 10.08.26

Abstract: This article analyzes the socio-philosophical foundations and practical methods of targeted work with individuals who are inclined toward radical views. Targeted work is understood not as placing a person into a predetermined “risk group,” but as a comprehensive process of examining the individual’s life situation, social relations, needs, views, and behavioral risks. The article provides a comparative analysis of such methods as individual assessment, trust-based communication, motivational interviewing, work with families, religious and ideological counseling, support in education and employment, prevention in the digital environment, mentoring, and interagency cooperation.

RADIKAL QARASHLARGA MOYIL SHAXSLAR BILAN MANZILLI ISHLASHNING SAMARALI USULLARI: IJTIMOY-FALSAFIY TAHLIL

Iroda Shoxitbekovna Axmedova

O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita bo‘lim boshlig‘i. Andijon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi. falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)

E-mail: axmedovaaa0577@gmail.com

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: radikallashuv, manzilli profilaktika, ijtimoiy falsafa, individual

Annotatsiya: Mazkur maqolada

radikal qarashlarga moyil shaxslar bilan

yondashuv, motivatsion suhbat, oila, diniy maslahat, ijtimoiy inklyuziya, raqamli muhit, deradikalizatsiya.

manzilli ishlashning ijtimoiy-falsafiy asoslari va amaliy usullari tahlil qilinadi. Manzilli ish shaxsni tayyor “xavf guruhi” qolipiga kiritish emas, balki uning hayotiy vaziyati, ijtimoiy aloqalari, ehtiyojlari, qarashlari va xulqiy xavfini birgalikda o‘rganish jarayoni sifatida talqin etiladi. Maqolada individual tashxis, ishonchga asoslangan muloqot, motivatsion suhbat, oila bilan ishlash, diniy va mafkuraviy maslahat, ta’lim va bandlik, raqamli muhitdagi profilaktika, murabbiylik hamda ko‘p tarmoqli hamkorlik usullari qiyosiy tahlil qilinadi.

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ АДРЕСНОЙ РАБОТЫ С ЛИЦАМИ, СКЛОННЫМИ К РАДИКАЛЬНЫМ ВЗГЛЯДАМ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Ирода Шохитбековна Ахмедова

Начальник отдела Комитета по делам религий Республики Узбекистан

Исследователь Андижанского государственного педагогического института. Доктор философии (PhD) по философским наукам.

E-mail: axmedovaaa0577@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: радикализация, адресная профилактика, социальная философия, индивидуальный подход, мотивационная беседа, семья, религиозное консультирование, социальная инклюзия, цифровая среда, дерадикализация.

Аннотация: В данной статье анализируются социально-философские основы и практические методы адресной работы с лицами, склонными к радикальным взглядам. Адресная работа рассматривается не как отнесение человека к заранее определённой «группе риска», а как процесс комплексного изучения его жизненной ситуации, социальных связей, потребностей, взглядов и поведенческих рисков. В статье проводится сравнительный анализ таких методов, как индивидуальная оценка, общение, основанное на доверии, мотивационная беседа, работа с семьёй, религиозное и идеологическое консультирование, содействие в получении образования и трудоустройстве, профилактика в цифровой среде, наставничество и межведомственное сотрудничество.

Kirish. Radikal qarashlarga moyillik bir kunda shakllanmaydi. U ko‘pincha uzoq davom etadigan ijtimoiy, ruhiy va mafkuraviy jarayonlarning natijasi bo‘ladi. Shaxs o‘zini jamiyatdan

chetda his qilishi, adolatsizlikni keskin qabul qilishi, hayotida ma'no yoki mavqe izlashga ehtiyoj sezishi mumkin. Bunday holatga keskin va sodda javob taklif qiladigan guruhlar ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli radikallashuvni faqat noto'g'ri diniy bilim yoki bitta internet materiali bilan izohlash yetarli emas.

Radikallashuv tushunchasi bilan zo'ravon ekstremizm tushunchasini aynanlashtirish ham to'g'ri emas. Inson keskin siyosiy, diniy yoki ijtimoiy fikrga ega bo'lishi mumkin, lekin zo'ravonlikni qo'llab-quvvatlamasligi mumkin. Aleks Shmid radikallashuvning mazmuni tarixiy va siyosiy sharoitga bog'liq ekanini, radikal fikrning o'zi esa avtomatik tarzda terrorchilik xulqiga olib bormasligini ta'kidlaydi. Demak, manzilli ishlashda fikr, niyat, guruhii aloqa va real xulq o'rtasidagi farq aniq ko'rilishi kerak[1]. Amerikalik tadqiqotchi Jon Horgan deradikalizatsiya bilan zo'ravon faoliyatdan chiqish bir xil jarayon emasligini ko'rsatadi. Shaxs zo'ravon harakatni to'xtatishi, ammo ayrim keskin fikrlarini saqlab qolishi mumkin. Profilaktika uchun eng muhim savol "u qanday fikr bildirdi?" degan savol bilan cheklanmaydi. "U zo'ravonlikni oqlayaptimi?", "boshqalarni safarbar qilyaptimi?", "guruh bilan tashkiliy aloqasi bormi?" va "xavfni kuchaytirayotgan hayotiy vaziyat nima?" degan savollar ham berilishi zarur[2].

Manzilli ishning maqsadi shaxsni qo'rqitish yoki undan tezkor ravishda "to'g'ri javob" olish emas. Asosiy maqsad uning zo'ravonlikka yaqinlashishiga sabab bo'layotgan omillarni kamaytirish va qonuniy hayot yo'llarini ko'paytirishdir. Bunda davlat xavfsizligi bilan inson qadri-qimmatini qarama-qarshi qo'yilmaydi. Aksincha, insonni jamiyatda saqlab qolish uzoq muddatli xavfsizlikning muhim shartiga aylanadi.

Asosiy qism. Radikal qarashlarga moyil shaxslar bilan ishlash murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir. Bunday faoliyatning maqsadi insonni tamg'alash, uning barcha fikrlarini nazorat qilish yoki uni jamiyatdan ajratish emas. Asosiy vazifa zo'ravonlikka olib borishi mumkin bo'lgan xavf omillarini kamaytirish, shaxsning qonuniy hayotga qaytishiga ko'maklashish va uning jamiyat bilan sog'lom aloqalarini tiklashdan iborat. Shu sababli manzilli ish umumiy ma'ruza yoki bir martalik suhbatdan farq qiladi. U har bir shaxsning hayoti, oilasi, dunyoqarashi, ijtimoiy muhiti va ehtiyojlarini alohida o'rganishni talab etadi.

Maykl Volfovich, Yael Litmanovits, Devid Vaysberd va Badi Hasisi tomonidan o'tkazilgan tizimli tahlil radikallashuvga olib keluvchi yagona va hamma uchun bir xil sabab mavjud emasligini ko'rsatadi. Olimlar shaxsiy muammolar, guruh ta'siri, oilaviy muhit, ijtimoiy norozilik, mafkuraviy qarashlar va boshqa omillar turli shaklda bir-biri bilan bog'lanishini aniqlagan[3]. Bu fikrdan kelib chiqib, biror kishining faqat tashqi ko'rinishi, diniy amali, siyosiy fikri yoki qarindoshlik aloqasiga qarab xavfli ekanini belgilash ilmiy jihatdan to'g'ri emas. Baholash aniq xulq, zo'ravonlikka munosabat, zararli guruh bilan aloqa, tahdid va safarbarlik

belgilariga asoslanishi kerak. Xavf darajasi doimiy holat emas. Ish topilishi, oilaviy nizoning hal qilinishi, zararli guruh bilan aloqaning uzilishi yoki ishonchli mutaxassis bilan muloqot boshlanishi natijasida xavf kamayishi mumkin. Aksincha, ishsizlik, qarzдорlik, ruhiy bosim, yaqin insonini yo'qotish yoki internetdagi zararli targ'ibot ta'siri xavfni oshirishi mumkin. Shuning uchun dastlabki baholash shaxsga chiqarilgan o'zgarmas hukm sifatida qabul qilinmasligi lozim. U ma'lum davrlarda qayta ko'rib chiqiladigan ishchi xulosa bo'lishi kerak. Aks holda ijobiy o'zgarish qilgan inson ham doimiy ravishda gumondor sifatida qolib ketadi.

Tinka Veldxeys reabilitatsiya dasturining natijasi faqat tanlangan usulga emas, balki ushbu usul qo'llanayotgan sharoitga ham bog'liqligini ta'kidlaydi[4]. Masalan, diniy mutaxassis yoki psixolog bilan sifatli suhbat o'tkazilishi mumkin. Biroq shaxs ishsiz, qarzдор, oilasi bilan jiddiy nizoda yoki doimiy kamsitilish holatida qolsa, suhbatning ta'siri uzoqqa bormasligi mumkin. Demak, manzilli ish faqat insonning fikrini o'zgartirishga emas, uning hayotidagi real muammolarni kamaytirishga ham qaratilishi zarur.

Har bir shaxs uchun individual ish rejasi tuzilishi shu jihatdan muhimdir. Rejada xavf omillari bilan birga insonning ijobiy imkoniyatlari ham ko'rsatilishi kerak. Uning kasbiy tajribasi, oilaviy aloqalari, ta'lim olish istagi, obro'li insonlarga ishonchi yoki jamiyat uchun foydali faoliyatga qiziqishi himoya omili bo'lishi mumkin. Rejaga yaqin va tushunarli maqsadlar kiritilishi maqsadga muvofiq. Masalan, oilaviy nizoni kamaytirish, ishga joylashish, ishonchli diniy manbaga bog'lash, zararli internet guruhidan chiqish yoki ruhiy yordam olish kabi vazifalar belgilanishi mumkin. Reja faqat mutaxassislar tomonidan tuzilib, shaxsga tayyor topshiriq sifatida berilsa, u oddiy nazorat hujjatiga aylanib qoladi. Inson rejaning maqsadini tushunishi, ayrim qarorlarni tanlashda ishtirok etishi va o'zgarish natijasini o'zi ham his qilishi kerak. Bu yerda talabchanlik bilan hamkorlik o'rtasidagi muvozanat muhim. Shaxsga butun mas'uliyatni tashlab qo'yish ham, uning o'rniga barcha qarorlarni mutaxassislar qabul qilishi ham kutilgan natijani bermaydi.

Manzilli ishning markazida ishonchli muloqot turadi. Radikal qarashga moyil inson ko'pincha uni hech kim tushunmasligini, jamiyat unga adolatsiz munosabatda bo'lganini yoki faqat o'zi ishongan guruh haqiqatni aytayotganini ta'kidlaydi. Mutaxassis suhbatning boshidayoq uning barcha fikrlarini inkor qilsa, muloqot bahsga aylanadi. Bunday vaziyatda shaxs o'z qarashini yanada qattiqroq himoya qiladi. Tinglash radikal fikrni tasdiqlash degani emas. Tinglash orqali ushbu fikrning qanday shakllangani, qaysi voqea, ehtiyoj yoki ruhiy og'riq bilan bog'liqligi aniqlanadi. "Bu fikr siz uchun qachondan muhim bo'ldi?", "Sizni qaysi voqea ko'proq ranjitdi?", "Zo'ravonlikdan boshqa yo'l bo'lishi mumkinmi?" yoki "Bu qaror oilangizga qanday ta'sir qiladi?" kabi ochiq savollar shaxsni o'z qarashining oqibatini mustaqil tahlil qilishga undaydi.

Maykl Klark motivatsion suhbat usulini deradikalizatsiya faoliyatiga tatbiq etib, o'zgarishni majburlashdan ko'ra insonning ichki ziddiyatlarini ochib berish muhimligini ko'rsatadi[5]. Masalan, shaxs o'zini adolat himoyachisi deb hisoblashi, shu bilan birga begunoh insonlarga zarar yetkazishni oqlashi mumkin. Mutaxassis bu ziddiyatni haqorat yoki bosim orqali emas, sokin savollar yordamida ko'rsatib beradi. Shunda o'zgarish fikri tashqi buyruq sifatida emas, insonning o'z xulosasi sifatida paydo bo'lishi mumkin.

Biroq motivatsion suhbatni barcha holatlar uchun yagona yechim deb bo'lmaydi. Agar aniq jinoyat rejasi, bevosita tahdid, og'ir ruhiy buzilish yoki boshqalarga zarar yetkazish xavfi mavjud bo'lsa, huquqiy va tibbiy choralar ustuvor bo'ladi. Demak, ishonchli muloqot xavfsizlik choralarining o'rnini egallamaydi. U xavf darajasiga mos ravishda boshqa choralar bilan birga qo'llanadi.

Daniel Kyoler radikallashuv jarayonida inson bir muammoning faqat bitta sababini va bitta yechimini ko'ra boshlashini ta'kidlaydi[6]. Bunday fikrlashda jamiyat "biz" va "ular" guruhiga bo'linadi, barcha muammolarning sababi bitta dushmanga yuklanadi va zo'ravonlik yagona yechim sifatida ko'rsatiladi. Kyoler taklif qilgan yondashuv insonning fikrlash maydonini qayta kengaytirishga qaratilgan. Bu usulda mutaxassis shaxsga shunchaki "siz noto'g'ri o'ylayapsiz" demaydi. U bir voqeaning bir necha talqini, bir muammoning bir necha qonuniy yechimi va insonning bir necha ijtimoiy roli borligini ko'rsatadi. Masalan, shaxs faqat ma'lum guruh a'zosi emas, balki farzand, ota-ona, mutaxassis, qo'shni yoki jamiyat fuqarosi hamdir. Ushbu rollarni tiklash uning butun hayotini bitta keskin mafkuraga bog'lab qo'yish ehtimolini kamaytiradi.

Oila ham radikallashuv jarayonida ikki xil rol o'ynashi mumkin. Oiladagi zo'ravonlik, e'tiborsizlik, keskin nizo va doimiy kamsitish insonni tashqi guruhdan himoya va e'tirof izlashga undashi mumkin. Aksincha, iliq munosabat, ochiq muloqot, o'z vaqtida berilgan yordam va sog'lom tarbiya himoya omiliga aylanishi mumkin.

Izabela Zix va Elena Nasayesku boshchiligidagi tizimli tahlil oilaviy yaqinlik, ijobiy tarbiya va ota-onaning ishtiroki ayrim holatlarda radikallashuvga qarshi himoya omili bo'lishini ko'rsatadi[7]. Shu bilan birga, radikallashgan shaxsning qarindoshlari ham uyat, ayblov, ruhiy bosim va ijtimoiy rad etishga duch kelishi mumkin. Shuning uchun oila faqat shaxs haqida ma'lumot beruvchi vosita sifatida emas, yordamga ehtiyoji bor alohida tomon sifatida ko'rilishi lozim.

Oila bilan ishlashda unga xavf belgilarini tanish, keskin bahsni kuchaytirmasdan gaplashish, zararli internet ta'sirini tushunish va zarur mutaxassisga o'z vaqtida murojaat qilish usullari o'rgatilishi mumkin. Shu bilan birga, oilaning barcha a'zosi bir xil fikrda yoki bir xil

imkoniyatga ega deb hisoblanmasligi kerak. Ayrim oilalarda asosiy yordam beruvchi shaxs ota-onasiz, aka-uka, opa-singil, turmush o'rtog'i yoki boshqa yaqin qarindosh bo'lishi mumkin.

Radikal qarash diniy dalillar bilan asoslangan holatda malakali diniy mutaxassis ishtiroki zarur. Biroq diniy suhbat faqat oyat yoki hadisni yoddan aytish, tayyor hukm berish yoki "bu noto'g'ri" degan jumla bilan cheklanmasligi lozim. Mutaxassis shaxs foydalanayotgan manbani, uning talqin usulini va diniy tushunchalarning siyosiy yoki zo'ravon maqsadga qanday moslashtirilganini tushuntirishi kerak.

Umar Ashur qurolli islomiy harakatlarning o'zgarishini tahlil qilib, ishonchli ichki yetakchilar, diniy-huquqiy qayta talqin, siyosiy sharoit va tashkiliy omillar birgalikda ta'sir qilishini ko'rsatadi[8]. Bu xulosani individual faoliyatga tatbiq etsak, suhbatni kim olib borishi ham uning mazmuni kabi muhim ekanini ko'ramiz. Shaxs diniy jihatdan ishonchsiz deb bilgan mutaxassisning to'g'ri dalilini ham qabul qilmasligi mumkin. Shu sababli suhbatdan oldin u kimni ilmiy va axloqiy jihatdan obro'li deb bilishi o'rganilishi lozim.

Professor Homid as-Said bir mamlakatdagi dasturni boshqa hududga o'zgartirmasdan ko'chirish ko'pincha kutilgan natijani bermasligini ta'kidlaydi[9]. Diniy va mafkuraviy savollar mahalliy tarix, til, mazhab, oilaviy madaniyat va davlat-jamiyat munosabatlari bilan bog'liq. Demak, xalqaro tajribadan foydalanish zarur, lekin u O'zbekistonning mahalla tizimi, diniy an'analari, huquqiy tartibi va yoshlar muhiti hisobga olingan holda moslashtirilishi kerak.

Diniy maslahatning etik chegarasi ham aniq bo'lishi lozim. Uning maqsadi shaxsni majburan dindor yoki dinsiz qilish emas. Asosiy vazifa zo'ravonlikni muqaddaslashtiruvchi, boshqa insonlarning qadr-qimmatini inkor etuvchi va qonuniy muloqotni rad qiluvchi talqinlarni tanqidiy qayta ko'rib chiqishga ko'maklashishdir. Dindorlikning o'zi xavf belgisi sifatida baholansa, qonuniy diniy hayot bilan zo'ravon mafkura o'rtasidagi farq yo'qoladi.

Radikal qarashlarni faqat kambag'allik yoki ishsizlik bilan tushuntirish ham noto'g'ri. Moddiy jihatdan ta'minlangan va oliy ma'lumotli insonlar ham radikallasishi mumkin. Biroq ishsizlik, qarzдорlik, kamsitilish, oilaviy inqiroz va kelajakka ishonchsizlik zararli guruh taklif qilayotgan birdamlik va ma'no tuyg'usini kuchaytirishi mumkin.

Markaziy Osiyo sharoitida diniy bilim, davlat siyosati va mahalliy ijtimoiy muhit o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga olish muhim. Dilshod Achilov va Renat Shayxutdinov postsovet musulmon davlatlarini qiyoslab, diniy hayotni muvozanatli tartibga solish va qonuniy diniy amaliyot uchun imkoniyat yaratish radikalizmning oldini olishda muhim bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi[10]. Bu fikr diniy erkinlik barcha xavfsizlik choralari bекor qilishini anglatmaydi. Aksincha, qonuniy diniy bilim bilan zo'ravon targ'ibotni aniq ajratishga chaqiradi.

Ishonchli diniy ta'lim va malakali ulamoga savol berish imkoniyati mavjud bo'lmasa, inson javobni yopiq yoki noma'lum internet guruhlaridan izlash ehtimoli ortadi. Shu bois profilaktika jarayoni savol beradigan insonni ayblashdan emas, unga ishonchli va tushunarli javob manbasini ko'rsatishdan boshlanishi kerak. Diniy iqtibosning mavjudligi avtomatik ravishda ekstremistik mazmun mavjudligini anglatmaydi. Zo'ravonlikka chaqiriq, nafrat, insoniylikdan chiqarish va noqonuniy safarbarlik alohida tahlil qilinishi zarur.

Rossiyalik sotsiologlar Yuliya Zubok va Vladimir Chuprov yoshlar ekstremizmining keskin shakllarini ijtimoiy noaniqlik, mavqening beqarorligi va kelajakka ishonchsizlik bilan bog'laydi[11]. Bu yondashuv yoshlar bilan ishlashda faqat ularning fikrini tuzatish yetarli emasligini ko'rsatadi. Inson jamiyatdagi o'rnini, kelajak kasbini va qonuniy muvaffaqiyat yo'lini ko'rmasa, keskin guruhlarining sodda va qat'iy va'dalari unga jozibali ko'rinishi mumkin.

Dina Sharipova va Serik Serik Beysembayev Qozog'istondagi zo'ravon ekstremizm holatlarini o'rganib, yoshlar orasidagi jinoyatchilikka ijtimoiy norozilik, turli yot g'oyalar va internet targ'iboti birgalikda ta'sir qilganini aniqlagan[12]. Ushbu xulosa radikallashuvni faqat diniy savodsizlik bilan izohlash yetarli emasligini ko'rsatadi. Ayrim vaziyatlarda jinoiy guruh bilan aloqa yoki zo'ravonlikni qahramonlik sifatida ko'ruvchi submadaniyat diniy shiorlardan oldin shakllangan bo'lishi mumkin. Raqamli muhit manzilli ishning alohida yo'nalishiga aylangan. Internet radikallashuvning yagona sababi bo'lmasa-da, u bir xil fikrni doimiy tasdiqlab turadigan yopiq axborot muhitini yaratishi mumkin.

Nuha al-Badi, Maram Kurdi va Shivakant Mishra arab tilidagi YouTube materiallarini o'rganib, diniy murossasizlikka oid ayrim videolar qidiruv va tavsiya tizimlarida sezilarli darajada uchrashini aniqlagan[13]. Bu holat onlayn profilaktikani faqat zararli materialni o'chirish bilan cheklash yetarli emasligini ko'rsatadi. Shaxs qaysi manbalarga ishonishi, qanday videolarni muntazam ko'rishi va algoritmi unga qanday mazmunni tavsiya qilishi ham hisobga olinishi kerak.

Raqamli manzilli ishda avvalo shaxs iste'mol qilayotgan kontentning mazmuni tahlil qilinadi. Keyin u ishonchli deb bilgan manbalar aniqlanadi. Shundan so'ng unga tushunarli til, qulay format va soha mutaxassisi orqali muqobil axborot yo'li taklif etiladi. Ommaviy masxara, haqorat yoki tajovuzkor "faktcheking" esa teskari ta'sir qilishi mumkin. Shaxs o'zini himoya qilishga o'tib, zararli guruhga yanada qattiq bog'lanishi ehtimoli mavjud.

O'zbekiston sharoitida mahalla imkoniyatlaridan keng foydalanish mumkin. Mahalla shaxsni omma oldida ayblovchi yoki uning haqidagi ma'lumotni keng tarqatuvchi tuzilma emas, balki ijtimoiy yordam, kasb, ta'lim va oilaviy ko'makka bog'lovchi hamkor bo'lishi lozim. Bu jarayonda dastlab aniq xulqiy signallar tekshiriladi. Ma'lumot imkon qadar bir necha mustaqil

manba orqali tasdiqlanadi. Diniy amal, tanqidiy fikr yoki qarindoshlikning o'zi manzilli nazoratni boshlash uchun yetarli asos bo'lmazligi kerak.

Keyingi bosqichda zo'ravonlikka munosabat, guruhii aloqalar, oilaviy vaziyat, ruhiy holat, bandlik, ta'lim, huquqiy muammolar, raqamli faoliyat va ijobiy imkoniyatlar birgalikda baholanadi. Baholashning vazifasi jazolash emas, qanday yordam yoki xavfsizlik chorasi kerakligini aniqlashdir. Shundan so'ng uch-to'rtta aniq va o'lchanadigan maqsad belgilanadi. Juda ko'p vazifa yuklash shaxsni charchatadi, mutaxassislar mas'uliyatini esa noaniq qilib qo'yadi.

Har bir masala o'z mutaxassisi tomonidan hal qilinishi shart. Diniy savolni malakali dinshunos yoki diniy mutaxassis, ruhiy muammoni psixolog yoki psixiatr, bandlik masalasini tegishli xizmat ko'rib chiqadi. Profilaktika inspektori psixologning, imom esa shifokorning vazifasini bajarmazligi kerak. Ko'p tarmoqli ish vazifalarni aralashtirish emas, turli kasbiy bilimlarni yagona maqsad atrofida birlashtirishdir.

Xavf kamaygani sari nazorat darajasi ham pasayishi lozim. Shaxs ijobiy o'zgarish qilayotgan bo'lsa-yu, nazorat avvalgidek qolaversa, unda o'zgarishning foydasiga nisbatan shubha paydo bo'ladi. Bosqichma-bosqich mustaqillik berilishi insonning mas'uliyatini oshiradi va jamiyatga qayta moslashuvini mustahkamlaydi. Manzilli ishda eng ko'p uchraydigan xatolardan biri ommaviy tadbirni individual faoliyat deb hisoblashdir. Yuzlab inson qatnashgan ma'ruza umumiy profilaktika uchun foydali bo'lishi mumkin, lekin u aniq shaxsning muammosini hal qilmaydi. Ikkinchi xato qo'rqitish, haqorat qilish yoki omma oldida fosh etishdir. Huquqiy oqibatni tushuntirish zarur, biroq insonning qadr-qimmatini kamsitish uning jamiyatdan uzoqlashishini kuchaytiradi.

Yana bir xato barcha muammoni diniy suhbat orqali hal qilishga urinishdir. Agar asosiy muammo ruhiy tushkunlik, oilaviy zo'ravonlik, qarzdorlik yoki jinoiy guruh bosimi bo'lsa, diniy dalilning o'zi yetarli bo'lmaydi. Shuningdek, natijani suhbatlar soni bilan o'lchash noto'g'ri. O'n marta uchrashuv o'tkazilishi faoliyat ko'rsatkichi bo'lishi mumkin, lekin natija zo'ravonlikni oqlashning kamayishi, zararli aloqaning uzilishi va qonuniy hayotning barqarorlashishi orqali aniqlanadi.

Maxfiylikka rioya qilmaslik ham jiddiy zarar keltiradi. Shaxs haqidagi ma'lumot zarur bo'lmagan odamlarga tarqalsa, u ishini, ta'lim imkoniyatini va mahalladagi mavqeini yo'qotishi mumkin. Ma'lumot almashinuvi "hamma bilishi kerak" tamoyiliga emas, "ushbu vazifani bajarish uchun kimga zarur?" degan mezonga asoslanishi lozim.

Umuman olganda, radikal qarashlarga moyil shaxslar bilan samarali manzilli ishlash jazolash va nasihat o'rtasida tanlov qilishdan iborat emas. Bu xavfsizlik, psixologik yordam, diniy maslahat, oilaviy qo'llab-quvvatlash, ta'lim, bandlik va huquqiy himoyani birlashtiradigan

kompleks jarayondir. Uning asosiy sharti insonni faqat “xavf manbai” sifatida emas, o‘zgarish imkoniyatiga ega shaxs sifatida ko‘ra olishdir. Ishonch, aniq mas’uliyat, mahalliy sharoitga mos yondashuv va muntazam baholash mavjud bo‘lsa, manzilli ish jamiyat xavfsizligini ta’minlash bilan birga insonning qonuniy hayotga qaytishiga ham xizmat qiladi.

XULOSA. Radikal qarashlarga moyil shaxslar bilan ishlashda yagona usul yetarli emas, chunki har bir insonning hayotiy sharoiti va muammolari turlicha. Shuning uchun yondashuv ham individual bo‘lishi kerak. Insonni tashqi belgilariga qarab emas, balki uning xatti-harakati va real xavf omillari asosida baholash lozim.

Radikallashuv odatda bir nechta omillar - oilaviy muammolar, ishsizlik, ijtimoiy chetlanish va internet ta’siri natijasida yuzaga keladi. Biroq bu omillar har doim ham radikallashuvga olib kelmaydi, shuning uchun har bir holat alohida tahlil qilinishi zarur.

Eng muhim yo‘nalishlardan biri - ishonchli muloqot o‘rnatishdir. Bosim yoki tahdid emas, balki hurmat va tushunish orqali shaxsning fikrini o‘zgartirishga erishish mumkin. Oila bilan ishlash ham muhim bo‘lib, u qo‘llab-quvvatlovchi muhitga aylanishi kerak.

Diniy yoki ideologik qarashlar mutaxassislar ishtirokida tushuntirilishi, internetdagi zararli ta’sir esa muqobil va ishonchli manbalar orqali kamaytirilishi lozim. Bunda turli soha mutaxassislarning hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Natija faqat suhbatlar soni bilan emas, balki shaxsning xulq-atvori, ijtimoiy hayotga qaytishi va zo‘ravonlikdan uzoqlashishi bilan baholanadi. To‘g‘ri yondashuv insonni ijobiy tomonga o‘zgartirib, jamiyat barqarorligiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Schmid, A. P. (2013). Radicalisation, de-radicalisation, counter-radicalisation: A conceptual discussion and literature review. International Centre for Counter-Terrorism. <https://doi.org/10.19165/2013.1.02>
2. Horgan, J. (2008). Deradicalization or disengagement? A process in need of clarity and a counterterrorism initiative in need of evaluation. Perspectives on Terrorism, 2(4), p - 3–8.
3. Wolfowicz, M., Litmanovitz, Y., Weisburd, D., & Hasisi, B. “Cognitive and Behavioral Radicalization: A Systematic Review of the Putative Risk and Protective Factors.” p – 88-101
4. Veldhuis, T. (2012) Designing Rehabilitation and Reintegration Programmes for Violent Extremist Offenders. p – 94-107
5. Clark, M. D. (2019) “Motivational Interviewing for Deradicalization: Increasing the Readiness to Change.” Journal for Deradicalization. p - 47–74

6. Koehler, D. (2017) Understanding Deradicalization: Methods, Tools and Programs for Countering Violent Extremism. p - 87-95
7. Zych, I., Nasaescu, E. (2022) "Is Radicalization a Family Issue? A Systematic Review of Family-Related Risk and Protective Factors, Consequences and Interventions." p - 92-99
8. Ashour, O. (2009) The De-Radicalization of Jihadists: Transforming Armed Islamist Movements. p – 54-67
9. El-Said, H. (2015) .New Approaches to Countering Terrorism: Designing and Evaluating Counter Radicalization and De-Radicalization Programs. p – 3-24
10. Achilov, D., Shaykhutdinov, R. (2013) "State Regulation of Religion and Radicalism in the Post-Communist Muslim Republics." Problems of Post-Communism. p – 18-44
11. Зубок, Ю. А., Чупров, В. И. (2008) "Экстремизм среди молодежи." Мониторинг общественного мнения: экономические и социальные перемены. с – 37-38
12. Sharipova, D., & Beissembayev, S. (2021). Causes of Violent Extremism in Central Asia: The Case of Kazakhstan. Studies in Conflict and Terrorism, p - 1-21. https://www.researchgate.net/publication/349695373_Causes_of_Violent_Extremism_in_Central_Asia_The_Case_of_Kazakhstan
13. Albadi, N, Kurdi, M, Mishra, S. (2022) "Deradicalizing YouTube: Characterization, Detection, and Personalization of Religiously Intolerant Arabic Videos." Proceedings of the ACM on Human-Computer Interaction. <https://dl.acm.org/doi/10.1145/3555618>